

Barcha muvofiq keluvchi oilalarga

Summer Rising dasturi qabuliga xush kelibsiz! – 3-mart, seshanba kuni ochilamiz!

Hurmatli oila,

Sizda hozirda bolalar bog'chasidan boshlab 8-sinfgacha o'qiydigan farzandingiz bormi va yoz fasliga bepul hamda xavfsiz dastur qidirayapsizmi? Shunday bo'lsa, Summer Rising dasturi farzandingiz uchun mos kelishi mumkin!

Summer Rising dasturi Nyu-York shahar Davlat maktablari (NYCPS) va Yoshlar va hamjamiyatni rivojlantirish boshqarmasi (DYCD) hamkorligidagi dastur bo'lib, u o'quvchilarga 6-7 hafta davomida kuniga 8 soatgacha akademik va bilim olish imkoniyatini taqdim etadi.

Quyida ushbu jarayon davomida siz bilishingiz kerak bo'lgan bir nechta asosiy sanalar keltirilgan:

- **2026 yil, 3-mart, seshanba:** Summer Rising dasturiga ariza berish ochiladi
- **2026 yil, 27-mart, juma:** Summer Rising dasturiga ariza berish yopiladi
- **2026 yil, 21-aprel, seshanba:** Summer Rising dasturi natijalari e'lon qilinadi va kutish ro'yxatlari ochiladi
- **2026 yil, 5-may, seshanba:** Summer Rising dasturi taklifnomasiga javob berishning oxirgi sanasi

Ariza berish hali ochilmagan bo'lsa ham, hozir amalga oshirishingiz mumkin bo'lgan eng muhim narsa bu MySchools hisobingiz to'g'ri sozlanganini tekshirishdir.

Sizda hisob yo'qmi? Farzandingizning joriy maktabiga murojaat qiling va uning o'quvchining ID raqami hamda hisobni yaratish kodini oling. Shu ma'lumotlarni olgandan keyin [MySchools](#) hisobini yaratishingiz (agar hisobingiz bo'lmasa) va farzandingizni qo'shishingiz mumkin.

Agar allaqachon MySchools hisobingiz bo'lsa, yangisini yaratishingiz shart emas. Agar farzandingizga oid ma'lumot tasdiqlanishi lozim deb yozilgan ko'k rangli katakni ko'rsangiz, yordam olish uchun farzandingizning maktabiga murojaat qiling.

Farzandingizni hisobga qo'shishga oid yo'riqnoma:

1. Boshqaruv panelida "Farzand qo'shish" tugmasiga bosing.
2. "O'rta sinflar maktabi, yuqori sinflar maktabi, 1-4 iqtidorli va iste'dodlilar sinfi yoki **Summer Rising** dasturiga ariza topshirayotgan Nyu-York shahri rezidentlari" variantini tanlang.
3. Farzandingizning 9 ta raqamdan iborat ID raqamini (OSIS) va noyob hisobni yaratish kodini (bu NYCSA kodingizdan farq qiladi) kiriting. Siz bu ma'lumotlarni maktabingizdan olishingiz mumkin. Uni to'ldirgandan keyin siz ariza topshirish ochilishiga tayyor bo'lasiz!

Agar birdan ortiq farzandingiz uchun ariza topshirayotgan bo'lsangiz, ularning barchasini ayni MySchool hisobiga qo'shishingiz mumkin! Farzandlaringiz uchun alohida hisoblar ochish shart emas.

Savollar bormi? Maktab maslahatchingiz bilan gaplashing yoki schools.nyc.gov/SummerRising veb-saytiga kiring.

Hurmat ila,
Summer Rising dasturining qabul jamoasi
New York City Public Schools (Nyu-York shahri davlat maktablari)

Bu e-pochta xabarini do'stingizdan oldingizmi? Summer Rising dasturiga qabul bo'yicha yangilik va xabarlariga obuna bo'ling: schools.nyc.gov/SignUp. Agar Summer Rising dasturiga qabul haqida kelajakda xabarlar obunasidan voz kechmoqchi bo'lsangiz bu [yerga bosing](#).